

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:39 (67204)
2018-yil 24-sentabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

BERUNIY ZIKRIDAGI ALLOMA


Buyuk olim aksariyat asarlarida johillik, tanballik, loqaydlikni qattiq qoralab, kasb egallash, bilim o'rganish, ajdodlar merosini avaylash, ularning qutlug' an'analarini sharaf bilan davom ettirish hamisha insonlarga naf keltirishiga chorlagan.



2-bet

SARDORLAR QANDAY ARALANMOQDA?

...Jurnalistika sohasiga qiziqqanligim bois, bir necha yildan buyon matbuot sardori sifatida faoliyat yuritdim. Bu borada sevimli gazetam «Tong yulduzi» menga yaqin ko'makchi bo'ldi.



3-bet

USTOZLARGA HAVAS QILGANMAN,

– deydi Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 16-umumta'lim maktabi muallimasi, O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi Huri SOLIYEVA.



HARBIY-SPORT FESTIVALI



Yosh harbiylar turnikka tortilish, estafeta, jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish, TIR, basketbol to'pini to'rga tushirish, arqon tortish, safda shaxdam qadam bilan yurish kabi shartlar bo'yicha bellashdi. Shu bilan birga, «Harbiy unvonlar va maxfiy parollarni topish» testlari bo'yicha o'z zukkoliklarini namoyish etishdi.

7-bet

1-oktabr -

Ustoz va murabbiylar kuni!

USTOZLARGA HAVAS QILGANMAN.

- deydi Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 16-umumta'lum maktabi muallimasi, O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi Huri SOLIEVA.



Maktabga ilk bor qadam qo'yganimda birinchi ustozim Dilbar opa Sulaymonova meni mehr bilan kutib olganlari esimda. Ular o'tgan har bir dars meni sehrli olamga yetaklar edi. Maktabdan uya qaytgach, o'zim ham singillarimga dars o'ta boshlardim. Onamga esa «Katta bo'lsam, albatta, Dilbar opadek bo'laman!», derdim. 3-sinfda o'qiyotganimda Malohat opa Yunusova bizga ustozlik qila boshladi. Ularning kiyinislari, o'zlarini tutishlariga juda-juda havasim kelardi.

Ulg'aygach, bolalik orzularim ushalib, besh opa-singil o'qituvchilik kasbini egalladik. Oliyohni tamomlagach, o'zim o'qigan O'rta Chirchiq tumanidagi 16-umumta'lum maktabiga ishga keldim. Mana, o'ttiz yildan buyon ushbu ta'lrim dargohida mehnat qilmoqdaman. Bu kasbni egallashimda ota-onamning xizmatlari beqiyos, albatta.

Shukurki, kasbim orqali e'zoz va ehtirom topdim. 2007-yil «Xalq ta'limi a'llochisi» ko'krak nishoni, 2010-yil

«Shuhrat» medali, 2016-yil «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi» unvonlari bilan taqdirlardim.

Har yili 1-oktabr – Ustoz va murabbiylar kuni men uchun qo'shaloq bayramga aylanadi. Shu kuni tug'ilgan kunimni ham nishonlar ekanman, taqdiringma azaldan ushbu sharaflı kash bitilganga o'xshaydi.

Bugun ushbu dil so'zlarimni qadr-don gazetamga yozar ekanman, bolalik yillardim bilan bog'liq yana ayrim xotiralar yodimga tushdi. U vaqtlar hozirgi «Tong yulduzi» gazetasiga muntazam obuna bo'lardim. Bu nashr orqali tengdoshlarim hayoti va ijodiy ishlari bilan yaqindan tanishib borardim. Hatto 6-sinfda o'qib yurgan kezlarim buxorolik bir qiz bilan tanishib, xatlar yozganim hali-hali esimda.

Hozirda o'qituvchilarga ko'rsatilayotgan ehtirom va yaratilayotgan sharoitlarni ko'rib, yanada g'ayrat bilan mehnat qilging keladi. Qani endi bolalik yillar ortga qaytsa-yu, hammasini boshdan boshlab, yana uzoq yillar ustozlik qilsam...

Dunyoning buyuk olimi, qomusiy bilim sohibi, deb e'tirof etilgan bobokanomiz Abu Rayhon Beruniy o'zidan oldin o'tgan bashariyat ulamolaringan hayot yo'li, ijodiy merosiga alohida mehr va qiziqish bilan qaragan.

BERUNIY ZIKRIDAGI ALLOMA

Yigitlik yillarda yunon tilini puxta o'rgangan olim «Hindiston» assarini yozishda «Iliada» va «Odessiya»larning asl matnidan foydalangan. Ana shu benazir bobomizning mehri tushgan allomalardan yana biri Abubakr Roziy hisoblanadi.

Abubakr Muhammad ibn Zakaryo ibn Yahyo Roziy qadimiy Ray shahrida 865-yilda tug'ilgan. Ziyorxonadondan bo'lgani uchun otasi uni xususiy muallimlarda o'qitadi, abad ilmini, musiqani o'rganib, mashshoq bo'ladi, zargarlik, sahhofilik kasblarini puxta egallaydi, aniq fanlar, xususan, kimyo bo'yicha yigitlik yillardayyoq kamolot kasb etadi. Shundan so'ng, Roziy Ray va Bag'dod madrasalarida o'qib, zamonasining buyuk allomalaridan dars oladi. Favqulodda iste'dod sohibi bo'lgan Abubakr Roziy 30 yoshida tabobatning barcha sohalari, hatto dorishunoslikni ham puxta o'zlashtirib, mashhur tabib sifatida el nazariqa tushadi. Shuning uchun ham avval Bag'doddan bir necha yil xalifalikning tabobatxonasini boshqaradi. Keyin esa Ray shifoxonasiga mudirlik qiladi. Bu orada u mantiq va falsafa fanlarini ham tugal egallaydi. Mazkur sohalardagi uning amaliy hamda nazariy mulohazalarini 15 yil davomida yozilgan. «Al-jome'-ul-kabira» kitobida jamlangan. Abubakr Roziy 925-yili o'z Vatanida ko'z kasalligidan vafot etgan.

Abubakr Roziy dunyoviy va diniy bilimlarni har jihatdan komil o'rganib, tinimisiz ijod qilgan umumlashboshiy mohiyatdagi donishmand hisoblanadi. Dunyo ilmi tarixiga bag'ishlangan barcha kitob, tazkira hamda fehrislarda Abubakr Roziyning ilmiy asarları 164 avaylash, ularning qutlug' an'analarini sharaf bilan davom ettirish hamisha insonlarga naft kelitirishiga chorlangan. Jumladan, ilm o'rganish haqida gapirgan benazir kashfiyotchi qunt bilan zahmat chekish, ko'p kitob o'qish lozimligini uqtirib, shunday deydi: «Men o'qimagan, bilmagan kitob qo'llimga tushib qolsa, u kitobi to'la o'zlashtirib olmaguncha, bosha biron ishga qo'll urmas edim».

Abubakr Roziy yozgan asarlarining amalii ahamiyatiga alohida e'tibor berar ekan. Shuning uchun ham olimning falsafa, kimyo, tabobat, fizikaga doir risolalari Sharqda keng tarqalib, shurhat qozongan. Jumladan, «Mansurga bag'ishlangan to'plam», «Tabib kelmagan kishiga», «Murakkab donilarga bag'ishlangan katta kitob», «Chechak va qizamiq haqida katta kitob», «Podshohlar tabobati» singari ko'plab asarlar tabobatning barcha sohalarida keng qo'llanilgan.

Hamidjon HOMIDIY,
O'zbekiston xalqaro Islam akademiyasi bosh mutaxassisi, professor



tadan 264 tagacha deb ko'satilgan. Beruniy esa «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklari» kitobida Roziy asarlarining hayotiga tavsifini keltirgan. Ulardan 42 tasi ximiyaning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan. U aynan kamyoviy tadqiqotlari jarayonida bir necha kashfiyotlar qilgan, spirit va gugurtin u topgan. Olimning «Al Kutub al-isno ashora», «Kasalliklar tarixi va klinik kuzatishlar», «Ruhiyat haqida kitob», «Sirlar haqida kitob» singari asarları Sharq tabobatida keng qo'llanilgan.

Buyuk olim aksariyat asarlarida johillik, tanballik, loqaydlikni qattiq qorabilab, kasb egallash, bilim o'rganish, ajoddalar merosini

avaylash, ularning qutlug' an'analarini sharaf bilan davom ettirish hamisha insonlarga naft kelitirishiga chorlangan. Jumladan, ilm o'rganish haqida gapirgan benazir kashfiyotchi qunt bilan zahmat chekish, ko'p kitob o'qish lozimligini uqtirib, shunday deydi: «Men o'qimagan, bilmagan kitob qo'llimga tushib qolsa, u kitobi to'la o'zlashtirib olmaguncha, bosha biron ishga qo'll urmas edim».

Abubakr Roziy dunyoviy va diniy bilimlarni har jihatdan komil o'rganib, tinimisiz ijod qilgan umumlashboshiy mohiyatdagi donishmand hisoblanadi. Dunyo ilmi tarixiga bag'ishlangan barcha kitob, tazkira hamda fehrislarda Abubakr Roziyning ilmiy asarları 164 avaylash, ularning qutlug' an'analarini sharaf bilan davom ettirish hamisha insonlarga naft kelitirishiga chorlangan. Jumladan, ilm o'rganish haqida gapirgan benazir kashfiyotchi qunt bilan zahmat chekish, ko'p kitob o'qish lozimligini uqtirib, shunday deydi: «Men o'qimagan, bilmagan kitob qo'llimga tushib qolsa, u kitobi to'la o'zlashtirib olmaguncha, bosha biron ishga qo'll urmas edim».

Hamidjon HOMIDIY,
O'zbekiston xalqaro Islam akademiyasi bosh mutaxassisi, professor

YOSHLAR YETAKCHILARI: ISHONCHNI OQLAYMIZ

Toshkent shahar, Olmazor tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan hududdagi umumta'lum maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida faoliyat yuritayotgan yoshlар yetakchilari bilan davra suhbatni tashkil etildi.



Suhbat jarayonida yoshlar yetakchilari bilan ish faoliyati jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar, belgilangan rejalar, kelgisidagi vazifalar xususida to'xtalib, savol-javoblar o'tkazildi. Shuningdek, yig'lishida ta'lim muassasasida ijtimoiy muhitning sog'igom bo'lishi uchun har bir pedagog xodim zimmasiga katta vazifalar yuklanishi lozimligi ta'kidlandi. Qolaversa, o'quvchining muammolari hal etilishida maktab psixologining o'mi katta degan xulosaga kelindi.

– Yoshlar ittifoqi yetakchisi bilimi, fikrlash doirasi keng, o'quvchilar o'rtaSIDAGI ziddiyatlarga to'g'ri yechim topa oladigan, tashqi ko'rinishi, muomala madaniyati, kiyinishi bilan barchaga o'nak bo'lishi lozim, – dedi

Olmazor tumani XTB boshlig'i Zamira Azimboeva. – Eng muhim, yetakchilar o'quvchilar bilan til topisha olsin.

– Bugungi davra suhbatida ish faoliyatimizni muvaffaqiyatlari olib borish uchun ko'pgina takliflar berilganidan xursandman, – deydi 111-umumta'lum maktabi yoshlar yetakchisi Adiba Tilaboyeva. – Men ta'lim muassasasiga ishga kelganimga 10 yildan ortiq vaqt bo'ldi. Lekin hali bior marta tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri bizlar bilan uchrashmagan, qanday muammolar bortilagini tinglamagan. Biz ushbu yusaks ishonchni, albatta, oqlaymiz.

Maktabda har hafta faol o'quvchilar bilan birgalikda muammolar o'rganiladi. Shuningdek, darsga kelmaydigan o'quvchilarning uyiga borib, ularni

masgh'ulotlarga jalb qilishga alohida e'tibor qaratamiz. Yangi o'quv yilidan bitiruvchi sinf o'quvchilar uchun ona tili va adabiyot, ingliz tili, tarix, kimyo, matematika fanlaridan qo'shimcha masgh'ulotlarni yo'lg'a qo'yidik. O'zim rasmi chizishga qiziqqanligim sababli ushbu san'at turiga qobiliyati bor o'quvchilar o'rtaSIDA tanlovlari uyuştiraman. Bolalarning yaqin do'sti, sirdoshi bo'lishiga intilaman. O'z ustimidan ko'proq izlanaman. Har bir sinfda sardorlar to'g'ri tanlansa, o'ylyamanki, o'sha sinfning reytingi yuqori bo'ladi.

Yig'lish so'ngida TXTB tomonidan har oyda ikki marotaba o'kaziladigan «Yosh pedagoglar maktabi» o'quv-seminariga yoshlar yetakchilarini ham taklif etib, ularning ish faoliyatiga doir tavsisi va yo'l-yo'rqliqlar berilishi bergilandi.

O'z muxbirimiz

«Kim ko'p kitob o'qiydi?»

Respublika an'anaviy tanlovi

MUTOLAANING GASHTI O'ZGACHA

Men badiiy kitoblar o'qishni yaxshi ko'rman. «Inson mutolaadan to'xtasa, fikrashdan ham to'xtaydi», deganlaridek, kitob bizning ma'naviy dunyomizning yuksalishida muhim o'rinn tutadi. Bolaligimda qoraqalpoq xalq ertaklarini o'qigan bo'lsam, keyinchalik o'zbek va jahon adabiyoti meni o'ziga rom etdi. Kitobning inson uchun haqiqiy do'st va beminnat maslahatchi ekanligini kitoblarni o'qigach, anglaganday bo'ldim. Mutolaa orqali dunyoqarashim o'zgardi, chet tillarni o'rgandim. O'qigan kitobrimdagi qahramonlar siyosida yaxshilik va yovuzlik nima ekanligini va hamisha ezzulik g'olib bo'lismeni angladim.

Uyimizda kutubxonam bor. Ota-onam ham mutolaaga oshno insonlar bo'lgani bois, ko'p kitob sotib olishadi va menga ham kitob sovg'a qilishni yaxshi ko'rishi. Bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda kitobning o'nini bosuvchi elektron asarlar judayam ko'paydi. Ammo kitob o'z o'quvchisini butunlay yo'qtgan emas. Chunki o'zing yaxshi ko'rgan kitobni qo'lingga olib, bag'ringga bosib, o'qishning gashti o'zgacha.

Kelajakda o'qigan kitoblarim menga beminnat qanot bo'lismiga ishonaman.

Ayjamal KALIBAYEVA,
Ibroyim Yusupov nomidagi davlat ixtisoslashtirilgan
maktab-internatining 11-sinf o'quvchisi

KUTUBXONAM BOR

Bo'sh vaqtimda rasm chizishga, hikoyalar va she'rilar o'qishga qiziqaman. Har yil «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lib, uch opa-singil mazza qilib gazetani mutolaa qilamiz.

Men bu yil nashrda e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qidi?» tanlovida qatnashmoqchiman. Uyimizda mo'jazgina kutubxona bo'lib, u yerda Xudoysi berdi To'xtaboyev, O'tkir Hoshimov, Chingiz Aytmatovning asarlarini bor. Ulardan «Sariq devni minib», «Oq kema», «Dunyoning ishlari», «Gulliverning sayohatlari» asarlarini yaxshi ko'rib o'qiganman. Bundan tashqari, Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan», «Kichkina Yanko» Venger ertaklarini, Aleksandr Volkovning «Yetti yerosti qiroli» ertaklarini mutolaa qilgaman. So'zim yakunida barcha tengdoshlarimiga kitobga oshno bo'lismilarini tilayman.

Ruxshona SIROJIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi
44-umumta'lum maktabining 6-sinf o'quvchisi

SARDORLAR QANDAY SARALANMOQDA?

Har yili o'quv yili avvalida O'zbekiston yoshlar ittifoqining maktab va sind sardorlari saylanadi.

Men ana shu jarayonning saminiy va kolisonsa bo'lismini juda istayman. Ya'ni, saralangan o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib, ma'lum yo'nalish sardori etib saylash lozim, deb o'yayman. Balki ularning o'zlaridan qaysi yo'nalish sardori bo'lishni xohlashlari va qanday ishlarni amalga oshirishni istashlari haqida so'rash kerakdir!

Qolaversa, har bir sardorda, albatta, tashabbus va yangi g'oyalari bo'lishi lozim. Ba'zan shunchaki a'lochi o'quvchilarini turli yo'nalishlarga sardor etib saylab qo'yilishini kuzatishimiz mumkin. Bunda, albatta, kutilgan natijaga erishib bo'lmasdi. Masalan, men jurnalistik sohasiga qiziqsanligim bois, bir necha yildan buyon matbuot sardori sifatida faoliyat yuritdim. Bu borada sevimli gazetam «Tong yulduzi» menga yaqin ko'makchi bo'ldi. Zero, matbuot sardori bolalar nashrlarini o'qib borishi, unda materiallari bilan qatnashishi lozim. Shunda u chinakkam yetakchi bo'la oladi. Ayni vaqtida maktab ittifoq sardori etib saylangan ekanman, tengdoshlarim bilan yangi tashabbuslar, tadbirlar o'tkazib, ta'lif maskanimning nomini butun respublikaga tanitishni istayman.

Sevarbek ELBOYEV,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
118-umumta'lum maktabining 8-«B» sind o'quvchisi

Kitob - bilim bulog'i.

USTOZLARIM TENGSIK XAZINA

Men har kuni maktabdan qaytgach, ustozlarim haqida ko'p o'yayman. Bu tinim bilmas kasb egalari qanday qilib shuncha o'quvchiga vaqt ajratib, bilim berishar ekan-a?! Axir, buning uchun qancha sabr, mehr va mehnat kerak...



Men ta'lif olayotgan dargohda nafaqat o'qituvchilar, balki maktab direktori ham o'quvchilar hurmati-yu mehrini ozona olgan. Chunki Saodat opa Shodiyeva bizlar bilan yaqin do'st. Ba'zan yo'lakda xomush holda turgan bolani ko'rsalar, uni mammun qilma-

guncha tinchimaydi.

Ularning eng katta orzulari kelajakda bizni yetuk inson bo'lib, biror kasbning etagidan tutganimizni ko'rish ekan.

Maktabimizning eng jonkuyar ustozlariga to'xtalsam, birinchi navbatda sind rahbarim, ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Gulzoda opa Soatovani tilga olmoqchiman. Bu samimiy muallimning darslarida vaqtning qanday o'ganimini sezmay qolaman. Ustoz «Adabiyot gulshanii» to'garagini tashkil etgan. Tasviriy san'at fani o'qituvchimiz Dilobar opa Ortikova esa dars davomida bizning savollarimizga yuzlarda tabassum bilan «Labbay, bolam», deya javob beradi. Ular yasagan qo'l mehnati namunalari ko'rib, lol qolamiz. Bizga ham hunarini o'rgatganlarda zavq bilan ishga kirishamiz.

Ta'lif maskanimizda barcha o'quvchilarining bilimi, ziyoji bo'lishi uchun jon kuydiradigan yana bir inson bor. Bu bizning kutubxonachimiz Nasiba opa Eshmo'minovadir. Har gal kutubxonaga kirganimda, ularning qo'llarida kitob ko'rman. Qiziq, bu inson shu vaqtgacha qancha asar o'qigan ekan-a? Ular biz so'ragan biror adabiyotni esa qayerdan bo'imasin topib beradi. Guvohi bo'lganiningizday, ustozlarim tengsiz xazina.

Azizbek ADBUMALIKOV,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
202-umumta'lum maktabining 8-sinf o'quvchisi

GAZETA BIZNI DO'STLASHTIRDI

Har hafta mahallamizning jonkuyar pochtachisi Rayimberdi amaki sevimli nashrim «Tong yulduzi»ni olib keladi. Gazetani qo'limga olishim bilan ko'nglimda ilhom barq urib, dimog'imiga uning o'ziga xos isi ufuradi. Uning sahifalarini varaqlay boshlar ekanman, tengdoshlarimning ijodiy ishlarni o'qib, goh quvonaman, goh o'nga tolaman. Ayniqsa, gazeta muxlislarining ba'zi muammolarga teran nigoh bilan qarayotganlari, dolzarb mavzuda ijod qilayotganlari meni lol qoldiradi.

So'nggi vaqtarda bir tengdoshimning qator maqlolari meni mu-lohazaga chorlamoqda. Bu Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lum maktabining 11-sinf o'quvchisi Otabek Bakirovdir. Do'stimming «Boshimga sochingiz savdosi tushdi», «Ijodiy ishmi yoki ko'chirmachilik?», «Momo sandig'idagi hikmatlar» kabi maqlolalarini o'qib, unga juda havasim keldi. Tengdoshim nima demoqchi bo'layotganini aniq va hayotiy misollar bilan bayon etadi. Otabek juda g'ayratli va izlanuvchan ekan uning yozganlarida bilinib turibdi. Shu o'rinda sevimli gazetamga yurtimizning turli viloyatlardagi yoshlarni do'stlashtirishga hissa qo'shayotgani uchun minnatdorlik bildiraman.

Dilshodbek RAHMATULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi
13-umumta'lum maktabining 10-sinf o'quvchisi

Orzu – inson baxti ijodkorligi uchun xuddi bilim kabi kerakli quroldir.

Opa-singil Kumushoy va Zulfiya Ro'zimboyevalar maktabning a'lochi o'quvchilari. Kumushoy Chilon-zor tumanida joylashgan Milliy gvardiya tasarrufi-dagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyining 8-sinf o'quvchisi.

HAYOTNING O'ZI IMKON, deydi opa-singillar

Zulfiya esa tumandagi 182-umumta'l'm maktabining 7-sinifida o'qidi. Ular o'zlarining tirishqoqligi, namunali xulqi, odobi hamda tashkilotchiligi bilan tengdoshlaridan ajralib turishadi. 2016–2017-yillarda «Yilning eng faol «Kamalak» a'zosi» nominatsiyasida g'olib bo'lgan Kumushoy 2018-yilda «Eng faol «Kamalak» sardori – 2018» mukofoti bilan taqdirlandi. Shuningdek, umumta'l'm maktablari o'quvchilari o'rtaida o'tkazilgan «Giyohvandlikka qarshi kurash» loyihasida faol ishtirot etdi. «Kamalak» yulduzlarix bolalar ijodiyot festivali tuman saralash bosqichi hamda «Yoshlar kunix munosabati bilan o'tkazilgan «Kitobga oshno qalblar» tanlovida 1-o'rin sohibasi bo'ldi. Uning ilk she'ri «Tong yulduzi» gazetasida chop etilgan. 2016-yilda «Ko'nglim bahori» nomli ilk she'riy kitobi chop etilgan bo'lib, hozirda ikkinchi kitobi ustida ishlamoqda. Quyida uning she'rini o'qib ko'ring:


*Hayot bu inson uchun
Katta bir imkoniyat.
Yaxshilik qiling har kun,
Ushalar orzu-niyat.*

*Tengdoshim, shuning uchun
Boy bermay imkonimiz.
Ilm olaylik har kun,
Go'zal o'tsin onimiz.*

Kumushoyning singilsi Zulfiya-xon xuddi opasiga o'xshab o'zining a'lo o'qishi, bilimga chanqoqligi bilan boshqalardan ajralib turadi. 2015–2016-yillarda maktablararo o'tkazilgan «Kitobim – oftobim» ko'rik-tanlovining 1-o'rin sohibasi bo'ldi. «Yilning eng bilimdon o'quvchisi – 2016» ko'rik-tanlovida 2-o'rin, «Kamalak» yulduzlarix bolalar ijodiyot festivali tuman bosqichida esa g'oliblikni qo'liga kiritdi. «Jaholatga qarshi ma'naviyat» mavzusida o'tkazilgan ijodiy ishlar tanlovida 1-o'rinni egallab, diplom bilan taqdirlandi.

Zulfiyaning hozirgi kunga qadar gazeta va jurnallarda bir qancha she'rлari chop etilgan bo'lib, uning ilk she'riy kitobi «Mehr bulog'i» deb nomlanadi.

Manzura UBAYDULLAYEVA



– Men xalqaro tasviriy va amaliy san'at anjumanlarida qatnashganman, – deydi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti san'at yo'nalishining 2017-yilgi sohiba-si, Farg'onada davlat universiteti talabasi Mushtariybegim Qurbonova. – Qozog'iston va Rossiyada o'tkazilgan festivallarda bir qator Gran-prilar sovrindori bo'lganman. «Zomin jilg'alar» anjumanining o'tkazilishi haqidagi xabarni eshitib, juda xursand bo'ldim. Sababi, yurtimiz viloyatlardan ijodkor tengdoshlarimiz ishtirot etishi turli ijodiy maktablarining o'z tajribasini namoyish etish imkonini beradi. Ayniqsa, o'z maktabini yaratma olgan ustozlarimiz ishtirotidagi mahorat darslari barchamizda katta taassurot qoldirdi.

– Fotografiyaga qiziqishim baland, – deydi yana bir ishtirotchi Alpjamil Ergashev. – Bolaligimdan chiroyli manzaralarni tasvirga olishni yaxshi ko'raman. San'atning bu turiga qiziquvchi tengdoshlarimiz ko'plab

MAKTAB MENGA QUCHOG'IN OCHDI

Bolaligim kechgan qadrondon bilim dargohiga keldim. Menga ustoz Ibrahim Safarov peshvoz chiqdi. Oppoq kabutarlar kabi tizilib turgan o'quvchilarning chaqnab turgan ko'zlariga tikilib zavqlandim.

Bu gulzordan muhabbat darsini olgan yigit-qizlar, Vatan tupoqlarin gullarga burkashni xayol qildi.

Gulzor o'quvchilarga yurt tuprog'ini gul-u gulzorga aylan-tirish darsini beradi. Ha, chindan ham bu dargohdan yurt koriga yaraydigan qancha ulug' insonlar yetishib chiqqan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyidiga adabiyotdan dars berган ustozimiz Ibrahim aka davralarda faxr-if-

tixor bilan so'zlashni kanda qilmaydi. Umr oqar daryo yanglig' tez o'tib ketar ekan. Bizning bolalikdan bugungi kungacha bosib o'tgan hayot yo'llimizning poyoni ko'rinmaydi. Mamlakatimiz rahbarining ta'l'm sohasiga qaratayotgan yuksak e'tibori zamirida yurting kelajagi bo'lgan yoshlarning qo'liga qo'g'oz va qalam tutqagan ustozlarning yoshlarni nurafshon yo'llarga to'g'ri boshlashi ko'zda tutilgan. Tadbirda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Furqat Saidov, rus tili o'qituvchisi Gulbahor Qurbonova, kutubxonachi Gulandom Karimova, maktab Yoshlar ittifoqi yetakchisi Dilnoza Kassirova hamda 43-umumta'l'm maktabi direktori Navro'z Nodirovlar o'z tashkilotchiligini namoyon etishdi. Nima bo'lganda ham, kishi o'zi tahsil olgan bilim dargohiga oradan ancha yillar o'tgandan so'ng qayta qadam bossa, bolalikning rangin xotiralari uning yuragini jumbushga keltirarkan. Menga tahsil bergen ustozlarning olam-olam taassurotlari bilan Toshkentga qaytdim...

AXTAMQULI

ZOMIN JILG'ALARI

O'zbekiston yoshlari ittifoqi Markaziy Kengashi tashabbusi bilan Respublikasi yosh ijodkorlar Kengashi tomonidan Jizzax viloyati, Zomin tumanida «Zomin jilg'alar» tasviriy san'at va fotografiya anjumani tashkil qilindi. Anjumanga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan nomzodlar shu yo'nalishlarda saralab olindi.



topiladi. Ushbu anjuman orqali esa chekka hududlardagi yosh fotoijodkorlar Zominda jam bo'dik. Zominning tabiatida juda ham chiroyli ekan. Bu yerda har bir bosgan qadamingiz suratga olishga arzysi.

– Tanlov haqidagi e'ltonni onamdan eshitdim. Shundan so'ng, ijodiy ishlarni yubordim. Tashkilotchilar tomonidan anjumanda qatnashish huquqining berilishi meni yanada ko'proq mehnat qilishga, aniqrog'i, ijod qilishga undi. Zominning sharshara meni juda quvnatdi. Chizgan rasmida ham uni aks ettirganman, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi ixtisoslashtirilgan san'at maktabining 9-sinf o'quvchisi Ajiniyoz Tangirbergenov.

Anjumanning yopilish marosimida yosh rassom va fotograflarga sertifikatlar topshirildi. Shuningdek, anjuman davomida o'z faoliyklarini namoyish etgan yoshlarni turli nominatsiyalar bo'yicha ham taqdirlandi.

*Shohruh IBODULLAYEV,
Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 2-ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan ixtisoslashtirilgan umumta'l'm maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

FIRST DAY AT SCHOOL

(Continue.
Started in the lesson 37)

It was the time to go to the library. All the students went there and picked up the picture story books. They tried to understand the story by watching the pictures. Asila also took a nice story book. First day of the school was going to over now. The school bell rang. Asila badge goodbye to her teacher. It was such a nice and wonderful day. She learnt many new things.

All the students came out the school gate and said good bye to each other. Students boarded on the school bus. It was time to go to home. Asila said bye to her friends before she climbed on the bus. Asila was very excited to share the wonderful experience of her first day at school with her mother and father. They also wanted to hug her little girl (The End).



AT THE BOOKSTORE

Read and match the correct version of answer.

Where is a bookstore?
Do you sell books on history?

I like detective books.

There is a good library near our house.
Show me some plays by Shakespeare.
The book is not available.

I recommend you this one.

Menga detektiv asarlar yoqadi.
Shekspir asarlaridan ko'rsating.
Men sizga mana buni tavsiya etaman.
Bu kitobdan yo'q.

Tarixga oid kitoblar sotasizlarmi?
Uyimiz yaqinida yaxshi kutubxonasi bor.
Kitob do'koniga qayerda joylashgan?

Dinora ABDULLAJONOVA

GUESS THE ANSWER

Read the article and answer the questions.

Every day he gets up at 6 o'clock and takes a shower, puts on his uniform. Then he has breakfast at 7 o'clock. At quarter past seven, he takes a bus to school. He starts work at 8 o'clock. He prepares the class for the lesson and meets his pupils. He talks with his student's parents. After work he corrects student's homework. He prepares his new theme for his pupils.

ANSWER THE QUESTIONS

- Does he walk to work?
- Does he get up at 5 o'clock?
- Does he check his pupil's homework?
- What is his profession?



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

IMPROVE YOUR ENGLISH

This task is very useful for your speaking skill. Let's talk about you.

What is your name?
What do you do?
What's your favourite day of the week?
What do you do in your free time?
Have you got any brother or sister?
Do you have a pet?
What do you usually do on Sunday?
When is your birthday?
What's your favourite sport?

Answer to those questions orally and it helps your speech. Interview another friend.

AVOID OF THE SAME

This is a useful task for your English. Instead of «How are you?» you may use those words.

How have you been?
How it is going?
Have you any news?
How is going?
How is life?
How do you do?
What's up?
What's happening?

BRAIN GAME

Write down at least one animal and furniture.




Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Beginning with the letter «d»	dog	dining room chair
Beginning with the letter «w»	wolf	wardrobe
Beginning with letter «c»		
Beginning with the letter «s»		
Beginning with letter «a»		

Ma'mura G'ULOMOVA

RIDDLES FOR KIDS

What can speak without a tongue and listen without ears.



If you need to see in the darkness of the night. Give me a nudge and I'll give you light.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

Qaldirg'ochlar menga
Vatan darsin berdi!

USTOZLAR

Siz tutqazib qo'lga qalam,
Alifbeni o'qishni ham,
Husnixatli yozishni ham,
O'rnatdingiz, ustozlar.

Odob bilan o'tirishni,
Intizomli ham yurishni.
Mehnat darsi har bir ishni,
O'rnatdingiz, ustozlar.

Sizda ko'pdir sabr-bardosh,
Mehridaryo, qalbi quyosh,
Oldingizda egamiz bosh,
Ey, murabbiy, ustozlar.

Ilm oldik, jo'shar g'ayrat,
El-yurt uchun bor muhabbat,
Doim bo'ling sog'-salomat,
Qalbi daryo, ustozlar.

*Shone'matxoji SHOMAHMUDOV,
Toshkent shahri, faxriy jurnalist*

QUYOSH

Tog'lar ortidan ko'taradi bosh,
Zarrin nurlarini sochadi quyosh.
Vaqt o'tib qorayganda qosh,
Bilmam qayga ketadi quyosh?!



CHINOR

Biram baland, biram ko'rkam,
Hovlimzida purviqor,
Buvimdan so'rab bilsam,
Ismim aytdilar – chinor.

*Ruxshona SODIQOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qamashi tumanidagi
80-umumta'lum maktabining
6-«B» sinf o'quvchisi*



KITOBJONIM

Kitobjonim – oftobim,
Sen yonimda bo'l doim.
Tushmaysan hech qo'lindan,
Sensan jajii o'rtog'im.

Yo'llarimga nur sochgan,
Dilimga g'urur solgan.
Baxt sari yetaklagon,
Kitobjonim – oftobim.

*Durdona TURDIMURODOVA,
Navoiy viloyati, Uchquduq
tumanidagi 20-umumta'lum
maktabining 3-sinf o'quvchisi*

VATANIMMING GULTOJI



Moviy, yashil, oq,
Qo'limda bayroq.
Yuraman shod,
Vatanda ozod!

Shamolda g'ir-g'ir,
Hilpiraydi hur.
O'zbeginning bayrog'i,
Vatanimming gultoji.

TI'LAK

Tilagim – a'lo o'qish,
Sinfda yetakchiman.
Maktabimiz chiroili,
O'zim ham a'lochiman.

*Zulfizar BOTIROVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi tuma-
nidagi 17-umumta'lum maktabining
5-«B» sinf o'quvchisi*

MAKTAB – MUQADDAS MASKAN

Biz o'qiyimiz maktabda,
Bilim olib har damda.
O'qiyimiz doim kitob,
She'lar qilamiz xitob.

Baxtli yashash orzumiz,
Bilim olish baxtimiz.
Bizlar uchun bu imkon,
Maktab – muqaddas makon.

Topolmaysiz hech qachon,
Bizdayin baxtli inson.

*Rayhona RO'ZIBOYEVA,
Xorazm viloyati, Hazorasp
tumanidagi 18-umumta'lum
maktabining 7-«B» sinf
o'quvchisi*



YURT
MADHI

Vatanimming ta'rifin,
So'zlab beray sizlarga.
Yurtimizning ertasi,
Quvnoq o'gil-qizlarga.

O'lkam ajib chamanzor,
Go'zal maskanlar bor.
Xizr nazar solgan yurt,
Insonlari beg'ubor.

Qishloqlari xo'p obod,
Shaharlari betimsol.
Suvi shirin, shifobaxsh,
Mevalari misli bol.

Ona yurtim bag'rida,
Kamol topib, quvnayman.
Ta'rifiga she'r bitib,
Kuyga solib kuylayman.

*Shohruh QODIROV,
Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumanidagi
22-umumta'lum maktabining 5-sinf o'quvchisi*

«TEMURBEKLAR MAK TABI» TURKUMIDAN

(Davomi.
Boshi o'tgan sonlarda)

Murod TILLAYEV

KUTILMAGAN O'ZGARISHLAR

Ertsasi kuni Erkin ertalab soat
oltida akasi bilan birga turdi.
O'zi o'ren-ko'rpalarni yig'ishtirdi.
Hovliga chiqib badantarbiya
mashqlari bilan mashg'ul bo'ldi.
Avval hovlini gir aylanib bir
necha marta yugurishdi. Keyin
akasi supa o'tasida turvolib turli
mashqlarni bajardi. Erkin unga
taqlid qilib turdi. Oshxonada
nonushta tayyorlayotgan onasi
avvaliga birpas hayron bo'lib
qarab turdi. Keyin derazadan
boshini chiqarib baqira ketdi:

– Hoy Erkin! Shamollaysan!
Kir ichkariga! Akang chiniqsan.
Unga hech narsa qilmaydi. Sen
hali o'rganmagansan.

– Ona, isib ketdim. Sovuq
hech ham sezilayotgani yo'q, – e'tiroz bildirdi Erkin.

– Uyga kir, dedim senga! Bo'lmasa hozir otangga
aytamani!



Shomda qushlar jam bo'lib, o'zaro
maslahatlashishdi. So'ng, o'zlariga
boshlilq saylashdi. Qushlarning
shohi ularga topshirq berdi:

– Menga dunyodagi eng chiroli, xushbo'y,
kamchiligi yo'q gulni topib kelasizlar.
Uning evaziga men sizlarga bir umrga
tatiyidan baraka urug'in beraman.

Shunda qushlar uch kun davomida
o'ziga ma'qul bo'lgan gulni topib,
shohga taqdim etishibди. Kabutar lolani, laylak boychechakni, bulbul
esa atirgulni keltiribdi. Ishimiz qushlar
shohiga xush yoqarmikan, deya chet-
dan kuzatib o'tirishibdi. Faqat birgina
qaldirg'och hech qanday gul olib
kelmabdi. Shunda qushboshi undan
«Sen nega gul keltirmading?» deya
so'rabi. «To'g'risi, men siz aytgandek
gulni topolmadim», debdi qaldirg'och.
Uning so'zidan g'azablangan shoh:

«Nahotki bitta gulni topolmading?»
debdii. «Gul ko'p ekan, ammo siz
aytgandek, nuqsonsi topilmadi.

Lolaning qalbi to'la dog',
boychechak uzgandan
so'lib qoladi. Atirgulning
esa tiklonlari bor... nima
bo'lganda ham
nuqsonsi gulning
o'zi yo'q
ekan. Bir kam dunyo deganlaridek,
kamchilik bor. Siz kamchiligi
yo'q narsa so'radingiz, unaqasini
topolmadim»...

– Ha, nima gap? Tinchlikmi? – sport kiyimida hovliga
chiqib kelgan otasi so'radi.

– Kichkinangizni qarang, kattangizga taqlid
qilayapti. Sen sovuqqa chiniqmagansan,
desam ham gapimga unamayapti, – shikoyat
qildi onasi.

Otasi Erkinga qarab piching qildi:

– Maqtanma g'oz, hunaring oz. Ko'ramiz,
qani bu harakating necha kun davom etar ekan.

Onasi otasiga dashnom berdi:

– O'zingiz nega sportchilarga o'xshab ki-
yinil oldingiz?

– Mashq qilmoqchiman.

– Do'xtir mumkin emas degan-ku!

– Xavotir olma, yengil mashqlarni bajaraman.
Bo'lmasa a'zoyi badanim zanglab qoladi-ku.
Shundog'am olti oydan beri umuman mashq
qilmayapman.

Onasi «E-e-e, sizlarga gapirgan men ahmoq»,
deb kaprigi silkib, derazani yopdi. Otasi
bo'lsa, ikki o'g'lining oldida turvolib, yengil
badantarbiya mashqlarini bajarishga kirishdi....

(Davomi bor)

Qaldirg'ochning
so'zidan barcha
qushlar mulzam
bo'libdi.

Qushboshi
uning zukkoli-

giga qoyil qolib,

baraka urug'in

unga in'orm

etishga qaror

qilibdi. Qaldirg'och esa bir-

gina aytgan to'g'ri so'zi evaziga
mukofot olishni istamay, ikkinchi
bor qushlarni hayratlanribdi.

Qissadan hissa shuki, har
birimiz yoshilidan halol va to'g'ri
so'z bo'lishga intilaylik! Qush-
larning anjumani bizga saboq
bo'lsin.

*Baxtiniso G'AFFOROVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 19-umumta'lum maktabi
o'quvchisi*



XURSANOV ARGENTINAGA BORADI

Xabaringiz bo'lsa, shu yilning 6-18-oktabr kunlari olsis Argentina poytaxti Buenos-Ayresda III yozgi o'smirlar Olimpiya o'yinlari bo'lib o'tadi. Quvonarlisi, ushbu nufuzli musobaqada yosh sportchilarimiz ham g'oliblik uchun bahs olib boradi.



Bundan avvalroq O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi vakillari Argentina 36 nafr yosh sportchimiz yo'l olishi haqida ma'lumot bergandi. Kuni kecha boks bo'yicha qizlar o'rtaida 51 kg vazn toifasida hamyurtimiz Xursanoy Xolmatova ham Buenos-Ayresdagi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etadi-

gan bo'ldi. Ushbu yosh va umidli bokschimiz bugunga qadar ko'plab respublika va xalqaro musobaqlarda munosib ishtirok etib, sovindorlar safidan joy egallagan.

E'tiborlisi, O'zbekiston delegatsiyasi ishtirokchilar soni bo'yicha avvalgi barcha rekordlarini yangiladi. 2010-yili Singapur mezonlik qilgan ilk o'smirlar Olimpiya o'yinlarida mamlakatimiz 21 nafr sportchi bilan ishtirok etgan bo'lsa, 2014-yilda Xitoyning Nankin shahrida tashkil etilgan to'r' yillikning nufuzli musobaqasida mamlakatimiz delegatsiyasi 28 nafr sportchidan tashkil topgandi. Bu gal esa Olimpiya o'yinlariga 37 nafr sportchi bilan yo'l olmoqdamiz. Ishonamizki, atletlarimiz Argentinada medallar soni va sifati bo'yicha ham natijalarni yangilashadi, albattra.

Sa'dullo TURSUNOV

HARBIY-SPORT FESTIVALI

Poytaxtimizning Chilonzor tumanida ilk bor harbiy-sport festivali o'tkazildi. Tuman bolalar va o'smirlar sport maktabida tashkillashirilgan mazkur tadbirda shahrimizdagagi har bir tumandan 1 ta maktab jamoasi ishtirok etdi.



Tosh-
kent
shahar
Mudofaa
ishlari
bos-
qarmasi
boshlig'i
Bahrom
Qosimov
tantanali

saflangan vatanparvar o'g'il-qizlarni qutlab, festivalni ohib berdi.

Jamoalarining shaxdam qadamlar bilan safda qo'shiq kuylashlari maydonni larzaga keltirdi. Milliy gvardiyachilarning qo'l jangi, o'zbek jang san'ati bo'yicha ko'rgazmali chiqishlari tadbiriga o'zgacha fayz kiritdi.

Yosh harbiylar turnikka tortinish, estafeta, jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish, TIR, basketbol to'pini to'rga tushirish, arqon tortish, safda shaxdam qadam bilan yurish kabi shartlar bo'yicha bellashdi. Shu bilan birga, «Harbiy unvonlar va maxfiy parollarni topish» testlari bo'yicha o'z zukkoliklarini namoyish etishdi.

Tadbir yakunida Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lum maktabi jamoasi 1-o'rinni egalladi. Yunusobod tumanidagi 5-umumta'lum maktabi vakillari 2-, Mirobod tumanidagi 125-umumta'lum maktabi jamoasi 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

YOSHLAR HAFTALIGI SPORT HAFTALIGIGA ULANIB KETDI

Jizzax viloyatida «Yoshlar haftaligi» doirasida sport musobaqalariga start berildi.

Erta tongdan Zomin tumanidagi 36 ta mahalladan 400 nafr yoshlar badantarbiya ya mashg'ulotlarida ishtirok etdi. Yugurish marafoniga 500 nafraga yaqin yoshlar jaib qilindi.

75 nafr ishtirokchi suzish bo'yicha o'zarbo'lib, bellashgan bo'lsa, 150 nafr yoshlar kurash musobaqasida kuch sinashdi. Shuningdek, 120 nafr voleybolchi qizlar, 300 nafr basketbolchilar hamda 150 nafr futbolchilar o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

* * *

Respublikamizning barcha hududlarida «Sport haftaligi» o'tkazildi.



Jumladan, Buxoro viloyati, Buxoro tumanida 36 ta mahalladan 721 nafr yoshlar ishtirokida badantarbiya o'tkazildi, shuningdek, tumanning 500 nafr yoshlar ishtirokida 5 km masofaga yugurish marafoni bo'lib o'tdi. Marafon g'oliblari esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandi.

Tumandagi bolalar va o'smirlar sport maktabida arqon tortish, tosh ko'tarish va kurash sport turlari bo'yicha musobaqa tashkil etilib, unda 350 nafr yoshlar o'z kuchini sinovdan o'tkazdi.

Buxoro sanoat kasb-hunar kollejida voleybol sport turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi, 150 nafraga yaqin yoshlar qamrab olindi. Tumandagi 18- va 21-umumta'lum maktablarida shashka-shaxmat va stol tennisi bo'yicha bellashuvlar tashkil etilib, unda 223 nafr yoshlar ishtirok etdi.

Tuman markaziy o'yingohida 18-21 yoshilar o'rtaida futbol bo'yicha musobaqa tashkil etilib, bahslarda 15 ta mahalladan jamoalar ishtirok etdi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Respublika yoshlar markazi hamkorligida tashkil etilgan mazkur haftalik yurtimiz yoshlarining sportga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda muhim omil bo'lishi, shubhasiz.

Muhammadsodiq ALIMOV



SEHRLI SARGUZASHTLAR OLAMI

Aziz o'quvchilar! Siz-larning kitob javoningiz yana bir ertak kitob bilan boyidigan bo'ldi. Yaqinda Abdujabbor Obidovning «Nozikoy va Maymoq» ertagi o'zbek va rus tillarida bir kitobda jam bo'lib, bosmadan chiqdi.

Asli kasbi informatika fani bo'yicha mutaxassis bo'lgan ijodkorning bir necha o'quv-uslubiy qo'llanmalari, she'riy kitoblari, nasriy asarlari chop etilgan.

«Nozikoy va Maymoq»



Xalq og'zaki ijodining to'qima sehrli sarguzashtlarga boy epik badiiy asar turi hisoblangan ertaklar - xalq hayoti, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog'lanib, insonlarga axloqiy va ma'naviy ozuqa beradi. Ular bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, yaxshilik va yomonlik, ezzulig-u yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rgatadi. Ertak bolaning aqliy salohiyatini topqirligini oshiradi, sog'lom va barkamol voyaga yetishlarida muhim ahamiyat kash etadi.

Pazanda qizgai!

BAQLAJONLI TEZPISHAR SALAT

Aziz kichik beklar! Kuz mavsumida turli salatlar, ayniqsa, baqlajondan tayyorlangan ikralar juda xushxo'r hisoblanadi. Ularning turi xilma xil.

Bugun taomnomangizga baqlajon dan tayyorlanadigan yana bir salatni qo'shib qo'yishingiz mumkin. U tez va oson tayyorlanadi.

Buning uchun bizga:

2-3 dona o'rta-cha baqlajon, 3 dona pomidor, 2 dona o'rta-cha kattalikdagi qizil bulg'ori alampiri, yarim bog' shivit, ikki dona tuxum, to'rt dona-cha sarimsoqpiyoz, tuz, yarim cho'mich pista yog'i kerak bo'ladi.

Tayyorlanishi: ishni, avvalo, barcha mahsulotlarni somoncha shaklida to'g'rashtan boshlaymiz. Keyin pista yog'i qizdirib, baqlajonni biroz qovuramiz. Pishgach, ustiga tuxum chaqib, ikki-uch daqqa qovuriladi. So'ngra, chuqurroq idishga ag'darib, ustidan to'g'ralgan boshqa masalliqlar bilan tuz qo'shib aralashтирiladi. Tayyor bo'lgan salat likopchalarga suzilib, shivit bilan bezatiladi.

Yogimli ishtahal



Nodira NAZAROVA

FOYDALI MASLAHATLAR

Oshxonada, albatta, onalarimizga teng keladigani yo'q. Mazasi bir umrga tatiydigan taomlar tayyorlash va oshxonani saranjom-sarishta saqlashni ularga chiqarishgan. Biroq onalarimiz ham bilmasligi mumkin bo'lgan oshxona bilan bog'liq ba'zi sirlar borki, ulardan sizlarni quyida voqif etamiz.



Piyoz va sarimsoqpiyozni saqlash uchun eng yaxshi joy havo o'tadigan qog'oz xalta. Bunday idishda ular ikki oygacha yaxshi saqlanadi.

Kartoshka nish otib ketmasin, desangiz, uni olma bilan saqlang. Olmadagi etilen moddasi nishlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.



Mango, kivi va avokadoni stakan yordamida tozalash quylay bo'ladi.

Banan shodasingin birlashgan qismini skotch bilan o'rab qo'ysangiz, u uzoq vaqt buzilmay saqlanadi.

Sarg'ayib qolgan **ko'katlarni** tashlab yuborishga shoshilmang. Ularni to'g'rab, muzlat-gichning muz idishiga solib chiqing, ustidan zaytun yog'idan quying. Uni muzxonada saqlab, zarur vaqtida salat, qayla va sho'rvular uchun ishlatshtingiz mumkin.

Sotib olgan **banan**ing hali xomroq bo'lsa, ularni gaz patnisiga qo'yib, qizdirib o'chirilgan gaz pechida 1-2 daqiqa ushlasangiz, kifoya.

NARGIZA tayyorladi



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxtadan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom

Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Tel.: (0-371) 244-11-90.

Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adasi - 27255
Buyurtma - V 2419

Tahririyatga kelgan barcha qo'yozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Shakli A-3.2 bosma taboq.
Bahozi kelishilgan narxdan.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqtli - 18:00
Topshiridi - 18:00
Tel/faks: (99871) 244-63-08